

**SOG'LOM ONADAN SOG'LOM BOLA KELAJAK POYDEVORI**

*Zomin Abu Ali ibn Sino nomli jamoat salomatligi texnikumi  
Akusherlik va ginekologiyada hamshiralik ishi fani o'qituvchisi  
Jumanazarova(O'sarova) Feruza*

*Har bir ona va bola o'limi "favqulodda holat" deb baholanadi.*

*Shavkat Mirziyoyev*

**Annotatsiya:** *Sog'lom avlod yurtimiz kelajagi. Tibbiyot sohasida katta islohotlar qilinmoqda. Tibbiyot xodimlari aholiga tibbiy xizmat ko'rsatishga qanchalik tayyor? Sog'lom onadan sog'lom bola tug'iladi. Homiladorlik vaqtida ona sog'ligiga qanchalik e'tiborli bo'lsa farzandini eson – omon bag'riga bosadi. Bugungi kunda homilaning nuqsonlarini erta aniqlash uchun skrining tekshiruvlari qo'llanilmoqda.*

**Kalit so'zlar:** *ona va bola, homiladorlik davri, muloqot jarayoni, Prezident qarori.*

Sog'lom bola shiori kelajak avlodning, o'sib kelayotgan avlodning ruhiy ma'naviy va jismoniy jihatdan sog'lom bo'lishlari va sog'lom o'sishlari uchun qayg'urish, desak xato qilmagan bo'lamiz.

Sog'lom ona va bola shiori har bir yurtning, millatning, xalqning asosiy tashvishlaridan biri bo'lmog'i lozim. Chunki kelajak avlod har bir davlat, yurt, el, xalqning kelajagini belgilaydigan avloddir. Ular ana shu xalq, yurt, davlat va elning umid g'unchalaridir.

Bu yorug' jahonda neki jonzot bo'lsa, barchasi bolasi uchun qayg'uradi, hatto og'zida don tashib boqadi, himoyalab voyaga yetkazadi.

Butun mavjudot orasida eng ulug', eng mukarram etib yaratilgan inson farzandi, uning baxti, kelajagi uchun butun borlig'ini, kerak bo'lsa butun umrini bag'ishlaydi.

Bu borada bizning millatimizga – o'zbek xalqiga yetadigani kam topilsa kerak. Farzand ko'rish, uni sog'-salomat katta qilish, baxt-u iqbolini ko'rish xalqimiz uchun eng ezgu orzu, oliy baxt hisoblanadi.

Bu bejiz emas. Chunki har bir oilaning kelajagi shu oilada qanday farzand voyaga yetayotganiga bog'liq. Oila – jamiyatning kichik, lekin g'oyat muhim bo'g'ini. Demak, butun mamlakatning kelajagi shu yurt farzandlariga bog'liq. Shuning uchun ham O'zbekiston mustaqillikka erishgan kunlardan oq Prezidentimiz rahnamoligida millat taqdiri, mamlakat kelajagi haqida o'ylash, uning huquqiy asoslarini ishlab chiqish, zarur shart-sharoitlar yaratish davlat

siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilandi. Mustaqillikka erishganimizdan keyin oradan ko'p o'tmay davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. Mustaqil O'zbekistonning birinchi ordeni "Sog'lom avlod uchun" deb ataldi.

Xalqimizda sut bilan kirgan jon bilan chiqadi, degan naql bor. Ona sutidek halol degan gap bekor aytilmagan. Demak, bolaning kelajakda qanday inson bo'lib voyaga yetishida (tarbiyaning o'rnini, ahamiyatini inkor etmagan holda) ona sutining ahamiyati juda katta.

Qayd etilishicha, xorijdan mutaxassislarni olib kelib, eng avvalo, ona va go'dak o'limi yuqori 20 ta tuman va shahardagi tibbiyot xodimlarini o'qitadi. "Xavf guruhi"ga kirgan homilador va tug'ruq yoshidagi ayollar bilan ishlash protokoli yangilanadi.

Shuningdek, tibbiyot brigadalaridagi 8,5 ming doya ilg'or tajriba asosida reproduktiv salomatlik va homiladorlar parvarishi bo'yicha o'qitiladi.

9 oy mobaynida homilador ayollar shifokori tomonidan belgilangan vaqtda muntazam tibbiy ko'rikdan o'tkazilmoqda. Qoni kam, kamquvvat ayollarga bepul dori – darmonlar tarqatilyapti. Fevral oyining ilk kunlarida tuman perinatal markazi 110 o'rinli joy bilan ish boshladi. Perinatal markazida onalar hamda bolalarning salomatligi uchun barcha sharoitlar yaratilgan. 2023-2024 yillarda onalar o'limi kuzatilmadi–deydi perinatal markazi boshlig'i Gulnora Abdullametova. Yanvar, fevral oyining 7 kunida 525 ta tug'ruq qayd etildi. Ushbu tug'ruqlarda onalar hamda bolalar o'limi kuzatilmadi. Homilaning sog'lom rivojlanishida sog'lom ovqatlanishga, vitaminlarga boy mevalar iste'mol qilinishi albatta muhim. Homila ozuqani onadan oladi. Ayollar vaqtida dam olishsa, og'ir ishlardan o'zlarini saqlasa salomatligini asragan bo'lishadi. Shifokor ko'rigiga kelganda sog'ligida muammosi tufayli yozib bergan muolajalarni olishlari zarur. Ish faoliyatim davomida shifokor tomonidan yozib berilgan muolajalarni olmasdan homilasiga zarar yetgan holatlar ham bo'lgan. Tug'ruq davrida hamda tug'ruqdan keyin ayollarga davlatimiz tomonidan bepul beriladigan dori-darmonlar ishlatiladi. Tug'ruq davri og'ir kechgan chaqaloqlar uchun hamda muddatidan oldin tug'ulgan chaqaloqlarning hayotini saqlab qolishimiz uchun chaqaloqlar bo'limida zamonaviy apparatlar bilan ta'minlangan. Jumladan SIPAP- apparati yordamida o'pkada musbat bosim hosil qilinadi. Muddatidan oldin tug'ilgan chaqaloqlar uchun ochiq Kuvezlar qo'yiladi. Onalar va bolalar o'limini kamaytirish har birimizning ustuvor vazifamizga aylanmog'i lozim.

Ma'lumki, 2023 yilning 8 sentyabrida qabul qilingan Prezidentning tegishli qaroriga asosan, onalar va bolalar salomatligini muhofaza qilish maqsadida sohaga ixtisoslashgan tibbiyot muassasalari yagona tizimga birlashtirildi.

Natijada aholisining 17 million nafardan ortig'ini xotin-qizlar tashkil etadigan mamlakatimizda 9,2 million nafardan ziyod tug'ish yoshidagi ayollarga sifatli va tizimli tibbiy xizmat ko'rsatish, tug'ilajak bolalar salomatligini nazorat qilishning yaxlit mexanizmi yaratildi.

O'tkazilgan muloqotda 22 mingdan ziyod o'ringa ega bo'lgan 229 ta tug'uruq, 11 million nafar bolaga xizmat qilayotgan 13 mingdan ortiq o'ringa ega 245 ta pediatriya muassasasi faoliyati jiddiy tahlil qilindi.

Qayd etilishicha, sohada zarur sharoitlar yaratilganiga qaramay, hozirga qadar tug'ish yoshidagi ayollarning tibbiy ko'rigi o'z holiga tashlab qo'yilgan. Homiladorlikka mutlaq moneligi bo'lgan ayollar ro'yxatlari to'liq jamlanmagan. Ular bilan hududda individual ishlash talab darajasida emas.

Natijada qandli diabet, jigar tsirrozi, xavfli o'sma va arterial gipertoniya kabi kasalliklari bo'lgan ayollar homilador bo'lmoqda va hayoti xavf ostida qolyapti.

Har bir tibbiy brigada tarkibida alohida doya hamshirasi shtati ajratilgani hamda vazifalari aniq belgilab berilganiga qaramay, birlamchi tizimda ularning tibbiy nazorati etarli darajada olib borilmayapti. Shu bois tibbiy brigada doyalari bu borada tegishli patronaj tadbirlarini o'z vaqtida amalga oshirishi kerak ekani alohida ta'kidlandi.

Yig'ilishda 2023 yil 8 sentyabrdagi Prezident qarori va davlat rahbarining 2024 yil 5 fevraldagi topshiriqlaridan kelib chiqib, soha vakillari zimmasiga qator vazifalar Yuklandi.

Unga ko'ra, endilikda homiladorlikka mutlaq yoki nisbiy moneligi bo'lgan va homiladorligi asorat bilan kechayotganlar birlamchi tizimdagi "ayollar maslahatxonasi"da tug'uruq komplekslari shifokorlari tomonidan chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rikdan o'tkazilib, kundalik reja asosida sog'lomlashtirish chorasi ko'riladi.

Patronaj doyasi o'z uchastkasidagi har bir homilador ayolning ambulator va stasionar sharoitdagi tekshiruv va davolash jarayonlarini nazoratga olib, shaxsan kuzatib boradi.

Tug'uruq komplekslarining barcha akusher-ginekolog, neonatolog, anesteziolog-reanimatologlarining reja asosida kundalik, haftalik va oylik malaka oshirishlari tizimli yo'lga qo'yiladi.

Joriy yil 1 martga qadar tug'ish yoshidagi ayollarning tibbiy ko'rik tartibi va hisobot shakllari jahon andazasi va zamonaviy talablar asosida qayta ko'rib chiqiladi.

Ko'p tarmoqli Markaziy va oilaviy poliklinika akusher-ginekologlari va doyalarning funktsional vazifalari qayta belgilanadi.

Hududlarga biriktirilgan etakchi akusher-ginekologlarning amalga oshiradigan asosiy vazifalari ishlab chiqiladi.

Yuqoridagi vazifalardan kelib chiqib, vazirlik huzurida yaqinda tashkil etilgan reproduktiv salomatlik bo'yicha shtab faoliyatini yanada jonlantirish vazifasi qo'yildi.

Muloqot yakunida onalar va bolalar salomatligi sohasida erishiladigan natijalar millatning nafaqat buguni, balki kelajagi uchun ham muhim ekani ta'kidlandi. Buning uchun sohadagi har bir xodim, har bir rahbar o'z ishiga vijdonan yondashib, homilador ayol va tug'ilajak bola salomatligi uchun shaxsiy javobgarlikni aslo unutmasligi lozimligi aytib o'tildi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Аминжонова, Ч. А., & Мавлянова, Д. А. (2020). Методика преподавания предмета “биология” в системе высшего медицинского образования. In методологические и организационные подходы в психологии и педагогике (pp. 8-11).

2. Nazarova, F., & Hudaikulova, N. (2019). Healthy generation-the basis of a healthy family. Scientific Bulletin of Namangan State University, 1(7), 69-73.

3. Аминжонова, Ч. А., & Мустафаева, М. И. (2017). Биоэкологическая Характеристика Водорослей Биологических Прудов г. Бухары. In Экологические проблемы промышленных городов (pp. 387-389).

4. <https://gov.uz/oz/ssv/news/view/6522/>

5. <https://aniq.uz/uz/yangiliklar/har-bir-ona-va-bola-ulimi-favqulodda-holat-deb-baholanadi-va-surov-shunga-yarasha-buladi-mirziyoev>

6. <https://www.gazeta.uz/oz/2024/02/05/mother-and-child/>